

68-dars. NAZORAT ISHI

1-topshiriq. Test savollariga javob bering.

- | | |
|----|--|
| 1. | ... – salbiy holat yuz berishining ehtimolligi, ya'ni bevosita yoki bilvosita zarar yetkazuvchi ko'ngilsiz hodisa. |
| | a) xavf;
b) tahdid;
c) hujum;
d) xavfsizlik. |
| 2. | Axborotning mavjudligi qanday holatlarda buziladi? |
| | a) axborotning taqdim etilishi, oshkor bo'lishi yoki unga daxlsiz shaxslarga ruxsatsiz tarqalishi natijasida;
b) axborotning o'zgarishiga yo'naltirilgan ta'sirlar natijasida;
c) mualliflik huquqiga ega foydalanuvchi qandaydir sabablarga ko'ra axborotdan foydalana olmaganida;
d) axborotning mavjudligi hech qanday holatda buzilmaydi. |
| 3. | Qaysi tushuncha turg'un biometrik signallarga oid emas? |
| | a) barmoq izi;
b) yuz tuzilishi;
c) ovoz;
d) qo'l shakli. |
| 4. | Kompyuter viruslaridan himoyalanishni necha bosqichda tashkil etish mumkin? |
| | a) 2 bosqichda;
b) 3 bosqichda;
c) 4 bosqichda;
d) 5 bosqichda. |
| 5. | Ma'lumotga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, zarur ma'lumotlarni topish va qiyoslash, ularga to'g'ri baho berish, kerakli ma'lumotdan samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish qanday savodxonlik hisoblanadi? |
| | a) kompyuter savodxonligi;
b) axborot savodxonligi;
c) media savodxonlik;
d) kommunikativ savodxonlik. |

MA'LUMOTLAR BAZASI VA MBBT HAQIDA TUSHUNCHА

6.	Kiberjinoyatchilarni faoliyatiga ko'ra, necha turga ajratish mumkin?
	a) 3; d) 4; b) 2; e) 5.
7.	Elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, faqat imzo qo'yuvchi shaxsning o'ziga ma'lum va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni yaratish uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi nima?
	a) elektron raqamli imzoning yopiq kaliti; b) elektron raqamli imzoning ochiq kaliti; d) elektron kalit sertifikati; e) elektron hujjat.
8.	"Elektron hukumat" to'g'risidagi Qonun necha bob va moddadidan iborat?
	a) 5 ta bob, 36 ta modda; d) 7 ta bob, 36 ta modda; b) 6 ta bob, 34 ta modda; e) 5 ta bob, 34 ta modda.
9.	"Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrirda) qachon qabul qilingan?
	a) 2015-yil, 18-noyabr; b) 2015-yil, 22-may; d) 2003-yil, 11-dekabr; e) 2005-yil, 22-mart.
10.	Bitkoinlar blokida qanday ma'lumot bo'lmaydi?
	a) jo'natuvchi shaxs haqida; b) qabul qiluvchi shaxs haqida; c) o'tkaziladigan bitkoin miqdori haqida; d) bloklar soni haqida.
11.	Virtual xususiy tarmoq (ingl. VPN – <i>Virtual Private Network</i>) – _____

12.	Eng keng tarqalgan kiberhujum turlari: _____

2-topshiriq. Elektron hukumat atamalariga misollar keltiring:	
	a) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish; b) hukumat faoliyatini qo'llab-quvvatlash; c) fuqarolar va hukumat munosabatlarini rivojlantirish.

MA'LUMOTLAR BAZASI VA MBBT HAQIDA TUSHUNCHA

3-topshiriq. Berilgan tushuncha va ta'riflarni o'zaro mos keltiring.

Dastur nomi	Dastur belgisi
Detektorlar	– zararlangan fayldan viruslarni chiqarib tashlaydi va faylni oldingi holatiga qaytaradi.
Doktor (fag)lar	– dasturlarning ishlashini davom ettirib, ularni virus yuqqandek tarzda o'zgartiradi.
Vaksinalar	– aniq virusning xarakterli holatini qidiradi.
B2C	– biznes hamkor bilan savdo aloqalarini o'rnatish.
B2B	– iste'molchilar o'rtasidagi savdo.
C2C	– chakana savdo.

4-topshiriq. Vijener usulidan foydalanib, "axborotlashtirish" so'zini "maktab" kalit so'zi yordamida shifrlang.

5-topshiriq. Berilgan matnni Sezar shifri yordamida shifrlang (bunda siljitim sonini mustaqil tanlang).

"Maxfiylik, haqiqiylik ta'minlanganligi uchun ham mualliflikdan voz kechishning iloji yo'q".